

QISHLOQ XO'JALIGI LOGISTIKASIDA ZAXIRALAR

ILmiy rahbar **Saidova F.K** – BuxDU,
“Yashil iqtisodiyot va agrobiznes”
kafedrası katta o'qituvchisi. 3-1-Agrobiznes
va investitsion faoliyat ta'lim
yo'nalishi 4-kurs talabasi **Raxmonov Rustam**

ANNOTATSIYA: *Maqolada qishloq xo'jaligi logistikasida zaxiralar nima ekanligi, uning zaruriyati, uning muhimligi, u haqidagi olimlarning jumalari haqida fikr boradi. Shuningdek maqolada qishloq xo'jaligi logistikasida zaxiralardan keng qamrovli foydalanish haqida so'z boradi.*

KALIT SO'ZLAR: *Logistika, logistik zanjir, zaxiralar, Just-in-Time, FAO (Food and Agriculture Organization), IT, zamonaviy texnologiya, sug'urta zaxiralari, infratuzilma, element, avtomatlashtirish, eksport, transport infratuzilmasini, ekologik barqarorlik, Transport tizimi, ombor xo'jaligida, Talab va taklif.*

1.Kirish.

Qishloq xo'jaligi logistikasida zaxiralar boshqaruvi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga taqdim etishning uzluksizligini ta'minlash uchun muhim jarayon hisoblanadi. Ushbu maqolada zaxiralar tushunchasi, ularning turlari, boshqaruv strategiyalari va real hayotdagi misollar asosida keng yoritiladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida logistika tizimlari mahsulotlarni samarali yetishtirish, saqlash, tashish va taqsimlash jarayonlarini tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarning markaziy elementi – zaxiralar boshqaruvi. Zaxiralar boshqaruvi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining uzluksiz oqimini ta'minlash, ularning sifatini saqlash va narxlarni barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sezgirligi va qisqa saqlash muddatini inobatga olganda murakkab ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligida zaxiralar boshqaruvi murakkab jarayon bo'lib, bir qator omillarni o'z ichiga oladi:

Tabiiy sharoitlar: Hosildorlik va mahsulot sifatiga ob-havo sharoitlari sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Logistik infrastrukturasi: Transport tizimi va omborlar imkoniyatlari mahsulotlarning saqlanishi va o'z vaqtida yetkazib berilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Talab va taklifning mavsumiyligi: Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab yil davomida o'zgarib turadi, bu esa zaxiralarning oldindan rejalashtirilishini talab qiladi.

Masalan, hosilni yig'ib olgan zahoti uni iste'molchilarga yetkazib bera olmaslik yoki qayta ishlash korxonalariga jo'natishda uzilishlar yuzaga kelishi mahsulotning chirishi, sifatsizlanishi yoki umuman yo'qotilishiga olib keladi. Bu esa nafaqat fermerlar, balki logistika zanjirining barcha ishtirokchilariga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, qishloq xo'jaligi sohasida zaxiralarni samarali boshqarish tizimini ishlab chiqish va amalda qo'llash zarur.

Qishloq xo'jaligi logistikasida zaxiralarning boshqaruvi nafaqat mahsulotning miqdorini nazorat qilish, balki uning sifatini, bozor talabiga mos ravishda yetkazib berilishini ta'minlashga ham qaratilgan. Bu nafaqat ichki bozorda, balki eksport yo'nalishlarida ham muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, ushbu maqolada qishloq xo'jaligi logistikasida zaxiralar tushunchasi, ularning turlari va boshqaruv usullari misollar bilan batafsil yoritiladi. Mazkur mavzu qishloq xo'jaligi sektorida samaradorlikni oshirish va iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish uchun dolzarbdir.

2. Adabiyotlar sharxi.

Quyida "Qishloq xo'jaligi logistikasida zaxiralar" mavzusiga tegishli ayrim olimlarning fikrlari va ularning har biriga oid o'zinning tahliliy mulohazalar keltirdim.

1. Akramov, Bning "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" kitobida bu haqida fikrlar keltirilgan. Akramovning fikricha, qishloq xo'jaligida zaxiralarni boshqarish ishlab

chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa mavsumiy o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lish talab etiladi. U, shuningdek, saqlash infratuzilmasining rivojlanmagani mahsulot yo'qotilishining asosiy sabablaridan biri ekanini ta'kidlaydi.

Ushbu fikr to'g'ri, chunki O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'pchiligi mavsumiy bo'lib, ularni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa hosildan keyingi yo'qotishlarni oshiradi. Shu sababli, logistika zanjirini modernizatsiya qilish muhim masala hisoblanadi.

2. Azizov, M. va boshqa hammualliflarning "Qishloq xo'jaligi logistikasining asoslari" kitobida ham o'zgacha fikr yuritilgan.

Azizov va hammualliflar mahsulotlarni saqlash va tashishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni asosiy masala sifatida ko'rsatib, zaxiralarni boshqarishda avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etishni taklif qilishadi. Ularning fikricha, IT yechimlari mahsulot hajmini va turini samarali kuzatib borishga yordam beradi.

Bu yondashuv bugungi zamonaviy logistika tizimlari uchun dolzarbdir. O'zbekiston qishloq xo'jaligida hali bu tizim to'liq joriy qilinmagan bo'lsa-da, sovutgichli omborlar va avtomatlashtirilgan zaxira boshqaruv tizimlarini kengaytirish oziq-ovqat xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Chopra, S. va Meindl, Pning "Supply Chain Management" kitobida ham bu haqida fikrlar borgan.

Chopra va Meindl zaxira boshqaruvini logistik zanjirning markaziy elementi sifatida ko'radi va zaxiralarni to'g'ri rejalashtirish narxlar barqarorligini ta'minlash bilan birga mahsulot sifatini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ular "Just-in-Time" tizimini (to'g'ri vaqt) samarali usul sifatida taklif qilishadi.

Ushbu fikr qishloq xo'jaligi logistikasida ham amaliy ahamiyatga ega, ammo O'zbekiston sharoitida bu yondashuvni tatbiq etishda ayrim cheklovlar mavjud. Masalan, yo'l infratuzilmasi va logistika markazlarining yetarli darajada

rivojlanmagani "Just-in-Time" tizimini samarali joriy qilishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, dastlab infratuzilmani yaxshilash zarur.

4. FAO (Food and Agriculture Organization) ham logistik zaxiralar uchun ajoyib fikr bildirgan. FAO hisobotida zaxira boshqaruvi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositasi sifatida qayd etilgan. Ular, ayniqsa, sug'urta zaxiralarining ahamiyatini ta'kidlab, global oziq-ovqat zanjirida yo'qotishlarni kamaytirish uchun zaxira boshqaruvini takomillashtirishni tavsiya qilishadi.

FAOning bu tavsiyasi O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarbdir. Davlat tomonidan sug'urta zaxiralari tashkil qilinishi kutilmagan holatlarga, masalan, iqlim o'zgarishi yoki bozor narxlarining o'zgarishiga qarshi barqarorlikni ta'minlaydi. Bu yondashuv qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini oshirishga ham yordam beradi.

5. World Bankning "Improving Agricultural Supply Chains" da ham bu to'g'risida fikr boradi. Jahon bankining tadqiqotida qishloq xo'jaligi logistikasida zaxiralar yetkazib berish zanjirining eng zaif nuqtalaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Ular logistika jarayonida mahsulotlarning sifatini yo'qotishning oldini olish uchun raqamli texnologiyalarni keng qo'llashni tavsiya qiladi.

Ushbu fikr O'zbekistonda dolzarb, chunki hosilning katta qismi eksportga yo'naltirilgan va mahsulot sifati xalqaro bozorda raqobatbardoshlikning asosiy mezonidir. Logistika jarayonini raqamlashtirish mahsulotlarning yetkazib berish vaqtini qisqartiradi va sifatni saqlaydi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida zaxiralarni boshqarish bir necha asosiy yo'nalishda rivojlantirilishi zarur:

Infratuzilmani modernizatsiya qilish: Omborlar va transport vositalarining sifatini yaxshilash.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish: IT tizimlaridan foydalanish orqali mahsulot zaxiralarini boshqarish.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash: Sug'urta zaxiralari va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish.

Bu fikrlar va tavsiyalarni O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi sohasiga tatbiq etish orqali, mahalliy va xalqaro bozorda muvaffaqiyatga erishish mumkin.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqarish zaxiralaridan foydalanish, Sug‘urta zaxiralarini qay tartibda amalga oshirish, tashuv zaxiralarini soddalashtirish, logistik zaxiralarni tartibli tashkil etish, tijorat zaxiralaridan foydalanish kabi mavzular yoritilib, mavzuga oid olimlarning fikrlari, ularning ilmiy mushohadalari va mavzuga bog‘liq ko‘plab nazariy adabiyotlar, mantiqiy fikrlash, taqqoslash ilmiy mushohada, tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zaxiralar tushunchasi va ahamiyati biz uchun muhim rol o‘ynaydi.

Zaxiralar – bu ishlab chiqarish va taqsimot jarayonlarida foydalanish yoki iste‘molchiga yetkazib berish uchun saqlanadigan materiallar yoki mahsulotlardir. Qishloq xo‘jaligida zaxiralar:

Xomashyo (masalan, urug‘, o‘g‘it, yoqilg‘i) kabilar.

Yarim tayyor mahsulotlar (masalan, qayta ishlash jarayonida foydalaniladigan mahsulotlar) kabilar.

Tayyor mahsulotlar (masalan, meva-sabzavot, don, sut va go‘sht mahsulotlari) ko‘rinishida uchraydi.

Zaxiralar boshqaruvi yaxshi tashkil etilgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi korxonalarining samaradorligi oshadi va yo‘qotishlar kamayadi.

Qishloq xo‘jaligi logistikasida zaxiralar turlari

1. Ishlab chiqarish zaxiralari haqida fikr yuritsak bularga:

Urug‘lik materiallari, texnikalar uchun yoqilg‘i va ehtiyot qismlar kiradi.

Misol: Paxta yetishtiruvchi fermer xo‘jaligida urug‘ va mineral o‘g‘it zaxirasi oldindan tayyorlab qo‘yiladi.

2. Tijorat zaxiralari savdoda muhim hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlarni saqlash va sotish uchun zarur bo‘lgan zaxiralar.

Misol: Meva-sabzavot eksporti bilan shug'ullanuvchi kompaniya mahsulotlarni maxsus sovg'ichli omborlarda saqlaydi.

3. Sug'urta zaxiralari bizni kutilmagan holatlardan saqlaydi. Kutilmagan holatlar uchun saqlanadigan zaxiralar.

Misol: Yomg'irli mavsumda bug'doyni qayta ishlash korxonasi ortiqcha xomashyo zaxirasini saqlaydi.

4. Tashuv zaxiralari logistik zanjirda muhim hisoblanadi. Bularga logistik zanjirda mahsulotlarning yetkazib berilishi vaqtida hosil bo'ladigan zaxiralar.

Misol: O'zbekistonning turli viloyatlaridan Toshkentga jo'natilgan qovun va tarvuzlar yetib kelgunga qadar omborlarda saqlanadi.

Zaxiralarni boshqarish strategiyalari

Zaxiralarni boshqarishda quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. "To'g'ri vaqt" (Just-in-Time) usuli.

Mahsulotlarni zarur paytda yetkazib berishni ta'minlaydi.

Misol: Dehqon bozorlari uchun mahsulotlarni kechasi yig'ib, ertalab yetkazish tizimi.

2. Xavfsizlik zaxiralari usuli.

Tabiiy ofatlar yoki texnik nosozliklar uchun qo'shimcha resurslarni saqlash.

Misol: Chorvachilik korxonalari ozuqa yetishmovchiligini oldini olish uchun qo'shimcha yem-xashak g'amlab qo'yadi.

3. Avtomatlashtirilgan zaxira boshqaruvi usuli.

IT tizimlari orqali zaxiralarni boshqarish.

Misol: Yirik logistika markazlari mahsulot hajmi, turi va saqlash muddatini kuzatish uchun dasturiy ta'minotdan foydalanadi.

Amaliy misollar

1. O'zbekiston misolida meva-sabzavot eksporti

O'zbekistonda yillik hosilning katta qismi Rossiya, Qozog'iston va Yevropa mamlakatlariga eksport qilinadi. Mahsulotlarni uzoq masofalarga yetkazish uchun

maxsus sovutgichli omborlar va transport vositalari talab etiladi. Bu zaxiralar sifatini saqlash va yo'qotishlarni kamaytirishga yordam beradi.

2. Amerikadagi bug'doy logistikasida sug'urta zaxiralari

AQShda bug'doy hosilining bir qismi davlat zaxirasida saqlanadi. Ushbu sug'urta zaxiralari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi va narxlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

3. Yaponiyaning "Smart Farming" tajribasi

Yaponiyada fermer xo'jaliklari avtomatlashtirilgan zaxira boshqaruv tizimlarini joriy qilgan. Mahsulotlar harorat, namlik va saqlash muddatini kuzatib boruvchi sensorlar yordamida boshqariladi.

Zaxiralarga ta'sir etuvchi omillar

Iqlim sharoitlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati va miqdori ob-havoga bog'liq bo'lganligi sababli zaxiralar boshqaruvi murakkablashadi.

Transport infratuzilmasini bilish bu bizning mablag'larimiz va vaqtimizni tejashga o'z hissasini qo'shadi.

Mahsulotlarni saqlash va tashishda muammolar zaxiralar yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Bozor talabining o'zgaruvchanligi

Iste'molchilarning talabidagi o'zgarishlar zaxiralarning ko'p yoki kam yig'ilishiga sabab bo'ladi.

5. Xulosa va takliflar.

Qishloq xo'jaligi logistikasida zaxiralarni boshqarish nafaqat mahsulotlarni yo'qotmaslik, balki fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalarini va iste'molchilar o'rtasidagi barqaror aloqani ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Zaxiralarni samarali boshqarish orqali mahsulot sifati oshadi, iqtisodiy yo'qotishlar kamayadi va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanadi.

Mazkur mavzuni yanada rivojlantirish uchun texnologik yangiliklar, ekologik omillar va davlat siyosatining ta'siri kabi masalalarni ham o'rganish kerak.

Qishloq xo'jaligi logistikasida zaxiralarni boshqarish tizimi nafaqat hosilni samarali yetkazib berish va saqlashni ta'minlash, balki iqtisodiy samaradorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon bir nechta asosiy omillar bilan uzviy bog'liq: resurslarni to'g'ri taqsimlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va bozor talabini to'g'ri bashorat qilish.

Zaxiralarni samarali boshqarish qishloq xo'jaligi korxonalariga ortiqcha mahsulot yo'qotishlarni kamaytirish, narxlar barqarorligini saqlash va ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashga yordam beradi. Masalan:

Samaradorlikni oshirish: Fermerlar va logistika kompaniyalari mahsulotni minimal yo'qotishlar bilan iste'molchiga yetkazadi.

Raqobatbardoshlikni ta'minlash: Mahsulotning sifatini saqlash orqali ichki va tashqi bozorlarda muvaffaqiyat qozonish mumkin.

Zaxiralar boshqaruvi mahsulot sifatini uzoq vaqt davomida saqlashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun muhim, chunki ularning ko'pchiligi tez buziladigan hisoblanadi. Sovutgichli omborlar, vakuumli qadoqlash va boshqa texnologiyalar mahsulotning saqlash muddatini oshiradi va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Sug'urta zaxiralari va mahsulotlarni saqlash tizimlarining samarali tashkil etilishi kutilmagan iqlim o'zgarishlari yoki iqtisodiy inqiroz paytida oziq-ovqat yetishmovchiligining oldini olishga yordam beradi. Bu milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashning muhim qismidir.

Ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat

Zaxiralarni to'g'ri boshqarish ekologik yo'qotishlarni kamaytiradi. Mahsulotlarni keraksiz tashish va saqlash jarayonlarining optimallashtirilishi natijasida energiya resurslari tejalanadi va atrof-muhitga salbiy ta'sir kamayadi. Bundan tashqari, bu jarayon qishloq xo'jaligida ishlaydigan aholi uchun barqaror daromad manbaini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Kitoblar va darsliklar:

1.1 Akramov, B. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti." Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.

1.2 Azizov, M. va boshqalar. "Qishloq xo'jaligi logistikasining asoslari." Toshkent: Mehnat, 2020.

1.3 Chopra, S., & Meindl, P. "Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation." Pearson, 2019.

2. Maqolalar va tadqiqotlar:

2.1 Mahmudov, R. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektorida logistika tizimlari rivoji." O'zbekiston iqtisodiyoti va innovatsiyalar jurnali, 2022.

2.2 Smith, J. "Agricultural Inventory Management in Developing Countries." International Journal of Logistics, 2021.

3. Xalqaro manbalar va tashkilotlar hisobotlari:

3.1 FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations). "Post-Harvest Management in Agriculture." 2020.

3.2 World Bank. "Improving Agricultural Supply Chains for Sustainable Development." 2021.

3.3 UNDP. "Agricultural Logistics and Food Security: Challenges and Opportunities." 2020.

4. Internet manbalari:

4.1 O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy veb-sayti: www.agro.uz

4.2 FAO veb-sayti: www.fao.org

World Bank qishloq xo'jaligi hisobotlari: www.worldbank.org/agriculture